

UO'K (UDK, UDK): 811.22.1: 81.2-5-98

## SHARQ XALQLARI HAYOTIDA FORS TILINING O'RNI VA UNING KEYINGI DAVRDAGI RIVOJI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14412815>

Zuxriddin Ismailov Maqsudjon o'g'li,  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
Xalqaro huquq fakulteti 2-bosqich talabasi  
[zuxriddinismoilov10@gmail.com](mailto:zuxriddinismoilov10@gmail.com)

Ilmiy rahbar: G. Husainova  
JIDU "Sharq tillari" kafedrasasi o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola fors tilining Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston xaqlari hayotida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlanib, uning asrlar davomida ushbu xalqlar hayotidagi ahamiyatining o'zgarib borishini tahlil etadi.*

**Kalit so'zlar:** fors tili, Eron, Markaziy Osiyo, Buxoro, tarixnavislik.

### ABSTRACT

*The importance of Persian language has grown for centuries across Middle East, Central Asia, Anatolia and in India. Today Persian is part of the glorious history of many countries who used this language as a communication medium between themselves. Special attention is given to the dominance of Persian throughout Middle Ages in Asia.*

**Keywords:** Persian, Iran, Central Asia, Bukhara, historiography.

### АННОТАЦИЯ

*Данная статья посвящена изучению роли персидского языка в жизни народов Центральной Азии, Ближнего и Среднего Востока, Индии и анализирует изменения его значения в жизни этих народов на протяжении веков.*

**Ключевые слова:** персидский язык, Иран, Средняя Азия, Бухара, историография.

### KIRISH

Fors o'lkasi, o'zining boy madaniyati va tarixi bilan dunyo olimlari va izlanuvchilari e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Fors madaniyati va tilining o'ziga xosliklari, nafaqat Eron mamlakatida, balki butun Markaziy Osiyo va Sharq xalqalari

madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida o’z izlarini qoldirgan. Bugungi kunda fors tilini o’rganishning ahamiyati faqatgina Eron aholisi tilida so’zlashishdagina cheklanmaydi. Fors tilini biz asrlar davomida shakllangan, fors tilida bitilgan adabiyot, san’at va falsafa bilan tanishishimiz uchun ham o’rganishimiz juda katta ahamiyat kasb etadi. O’rta Osiyoda fors tili XI asrdan to XIX asrgacha “lingua franca” vazifasini bajarib keldi. Hind-yevropa tillar oilasiga kiruvchi fors tiliga qardosh tillar qatoriga bugun, asosan, Eron fors tilisi, Afg’oniston dariysi, Pokiston pashtusi, Kavkaz ossetiysi va Tojikistonda tojik tili kiradi.<sup>1</sup>[1]

Fors tili rivojlanish bosqichida bir qator davrlarni bosib o’tgan bo’lib, ko’pchilik olimlar bu davrlarni uch bosqichga bo’lishadi.<sup>2</sup> [2]

•qadimgi davr fors tili (Avesto tili, Ahamoniylar davlati (asoschisi Kir II, miloddan avvalgi 590-529), Behistun qoyatoshlariga o’yilgan bitiklar va Doro qarorlari) “cuneiform” (kyuniform) ko’rinishga ega bo’lib, ushbu yozuv turidan shumerlar 4-mingyillik oxirlaridan foydalana boshlashgan;

•o’rta davr fors tili (pahlavi alifbosi (oromiy yozushi (*Aramaic language*) asosida tuzilgan yozuvdan foydalanilgan, oromiy xalqlarining yozushi bu davrda butun O’rta Sharq xalqlari alifbosiga katta ta’sir o’tkazadi) miloddan avvalgi 2-asrdan to Sosoniylarning qulashigacha amalda qo’llanilgan til;

•yangi davr fors tili arab istilosidan keying davrda arab alifbosi asosida vujudga keladi

Fors tili butun Markaziy Osiyoda keng tarqalgan turkiy tillarga (chig’atoy lahjasи) juda katta ta’sir o’tkazib, bu ta’sir faqat islom olami doirasida cheklanmagan. Rossiya shimalida va Sibir hududlarida ayrim fors tilidan o’zlashgan xudo (forscha: خدا), karamat (forscha: mo’jiza) kabi so’zlar bugun ham uchraydi. Markaziy Osiyoda fors tili diplomatik aloqalar, sud va davlat ishlarida qo’llanilgan rasmiy til maqomiga ko’tarila olgan. Islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan Markaziy Osiyo hududida bu ikki til o’rtasida ustunlik uchun kurash avj oldi. Garchi, arab tili Qur’on ilmi va islom huquqshunosligini (fiqh) o’rganishda asosiy vosita hisoblangan bo’lsada, fors tili tibbiyot va astronomiya kabi aniq fanlar taraqqiyotida o’zining ustunligini saqlab qola oldi.<sup>3</sup> [3] Ushbu ikki til o’rtasidagi kurashlar arablarning Sosoniylarning davlatini (eramizning 224-651-yillari) yengishi bilan boshlanib, forslarda o’z tillarini

<sup>1</sup> Khansir Ali A., Mozafari N. The Impact of Persian Language on Indian Languages. Academy Publisher, 2014. <https://www.academypublication.com/issues/past/tpls/vol04/11/20.pdf>

<sup>2</sup> Moutasim Billah Omed. Origin and changing process of Persian Dari language. International Journal of Advanced Academic Studies, 2021. <https://www.allstudyjournal.com/article/542/3-2-8-129.pdf>

<sup>3</sup> Green, Nile, editor. The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca: Persian and Turkic from Kazan to Tobolsk. 1st ed., University of California Press, 2019. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctrv7fdry>.

aslicha saqlab qolish zaruratini yuzaga chiqaradi. Keyinchalik bu kurashlar Sosoniylar ta'siri ostida bo'lgan O'rta Osiyo uchun ham kechdi.<sup>4</sup> [4]

Markaziy Osiyoda turk tilida ijod qilish Temuriylar davrigacha sezilarli darajada bo'limgan. Ushbu rivojlanishda Hazrat Alisher Navoiyning beqiyos hissasini aytib o'tmaslik imkonsiz. Shunday bo'lishiga qaramay, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxon va Xondamir kabi tarixchilar o'z asarlarini fors tilida bitishgan. Temuriylardan keyin Movarounnahrda (yevropa manbalarida Transoxiana) hukmronlik qilgan Shayboniyxon ikkita turk tilida bitilgan tarixiy asarlarga buyurtma beradi. Bular Muhammas Solihning “Shayboniynoma”si va muallifi noma'lum bo'lgan kitob “Tavorixi guzidayi nusratnama” (“G'alabalar kitobidan tanlangan tarixlar”) asarlari edi. Shu bilan birga, bu davrda ancha mashhur bo'lgan fors-tojik tilida ijod qiluvchi Binoiyning va shayboniylar davlat saroyi tarixchisi Mulla Shodiyning shaxsan Shayboniyxon tomonidan qo'llab quvvatlangani bizga ma'lum. [5] Keyingi shayboniy hukmdorlar fors tiliga ko'proq urg'u berib, turk tili fors tiliga nisbatan mintaqadagi o'zining ustunligini yo'qotadi. Ashtarkoni Subhonqulixonning (1681-1702) o'z tibbiyotga doir ishlarini turk tilida bitgani bu davrdagi haddan ziyod fors tilining qo'llanilishi orasida juda ko'zga ko'rinarli hodisadir. Turk tili faqat Xorazmdagina o'z ustunligini saqlab qola olgan edi. Markaziy Osiyodagi fors tilining keying rivoji XVIII asr o'rtalariga kelib sustlashishni boshladi. Bunga xonliklar taxtiga o'zbek urug'larining kelishi katta ta'sir ko'rsatgan bo'lishi ehtimol. Xivada qo'ng'irotlar urug'i xonlarining sa'y-harakatlari bilan fors tili asta-sekin davlat ishlaridan chiqib, chig'atoy turk tilining o'rni sezilarli oshgani ushbu davr davlat ish hujjalardan ma'lum. Bu davrda Munisning (1778-1829) “Firdavs ul-iqbol” tarixiy solnomasi asari turkiy tilda bitilgan bo'lib, uning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy ham uning merosini davom ettirib turk tilida ijod qiladi. Bu ikki shaxsning turk tilida Navoiydan keyin qoldirgan adabiy merosi ahamiyatga molikdir. Minglar sulolasiga ostidagi Qo'qon, mang'itlar hukmronligidagi Buxoroda fors tili o'zining davlat ishlarida asosiy til sifatidagi o'rmini saqlab qola oldi. Buxoroda bu holat toki 1920-yilda sovetlarning Buxoroni zabt etishigacha davom etdi. Bu davrda yaratilgan asarlarning tarkibida sof turkiy so'z va grammatik qoidalarni uchratish qiyin. Ko'pchilik hollarda, fors, turk va arab tili qoidalari o'zaro uyg'unlashib ketgan. Muhammad Solihxo'janing mashhur “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida ushbu birikmaga e'tibor bering: “sarvari to'qson to'qqiz ming mashoyix”. Birikmada aniqlanmish “sarvar” so'zining aniqlovchidan oldin kelishi fors tilidagi izofa (إضافه) qoidalariiga mos bo'lib, uning o'zbek tilida

<sup>4</sup> Ghanbari H., Rahimian M. [Persian Language Dominance and the Loss of Minority Languages in Iran](#). Open Journal of Social Sciences, 2020. <https://www.scirp.org/journal/papercitationdetails?paperid=103964&JournalID=2430>

kelishi ikki til grammatik qoidalarining bu davrda aralashib ketganligiga yorqin misol bo’la oladi. [6]

Hozirgi Eron hududidan g’arbda Vizantiya imperiyasiga qadar cho’zilgan XI asr ikkinchi yarmida Saljuqiylar davlatining shakllanishi fors tilining keng yoyilishi va bu hududlarda mutlaq ustunlikka erishishiga olib keldi. Saljuqiylarning o’z davlat yuritish odatlari bo’lmagani bois, ular shunchaki o’zlaridan oldinroq hukmronlik qilgan sosoniylar tajribasini o’zlashtirdilar va o’zlari bosib olgan ulkan hududlarda fors tilini davlat ish yurituv tiliga aylantirishdi. XIII asr o’rtalarida Eronning Xulogu boshchilik mo’g’ullar tomonidan istilosи natijasida bir qator e’tiborli fors vazirlari Anatoliya hududiga ko’chishadi va bu yerda Ilxoniyalar davlati (Xulogu asos solgan davlat) ostida davlat lavozimlarini egallashadi. Anatoliyadagi fors tilining keng yoyilishi aynan ushbu vazirlarning fors tilida ish yuritishi bilan bevosita bog’liqdir. Davlat ishlari, sud, diplomatik yozishmalar to’la fors tilida olib boriladigan bo’ladi.<sup>5</sup> [7]

Fors tilining Oltin O’rda (Jo’ji ulusi) xonligida tutgan o’rni haqida ma’lumotlar ko’p bo’lmasada, XIV asr birinchi yarmida O’zbekxon va Jonibekxonlarning davrida fors tilida bitilgan masnaviy she’rlarning miqdori talaygina. Bu davr fors tilining kirib kelishida Xorazm va Markaziy Osiyo hududlaridan kelgan musulmon olimlarning ham hissasi katta.<sup>6</sup> [8] Oltin O’rdadan keyingi davrda ham fors tili uning sobiq hududlarida rasmiy hujjat tili maqomini saqlab qoladi. Bu holat tatar o’quvchilarining Buxoroga madrasa ilmi uchun borishlari bilan bog’liq bo’lib, bu davrdagi fors tilining Buxoro madrasalaridagi asosiy til sifatidagi o’rni ularga ta’sirini o’tkazmasdan qolmaydi. 1726-yilda buxorolik o’quvchi Mansur ibn Abdurahmon ibn Anas al-Burunduqiyning fors tilida yozgan arab grammatikasini o’rganish uchun “Sharh al-Avomil al-Mi’a” asari butun Rossiya madrasalarida mashhurlikka erishadi. So’fiylik tariqatining tatar xalqi orasidagi mashhur namoyondasi Abdurahmon al-Bulg’oriyning (1754-1835) so’fiylikka bag’ishlagan va So’fi Ollohyorning (1616-1713) “Sabot ul-ojjizin” va “Murod ul-oriffin” asarlariga yozgan sharhlari fors va arab tillarida bitilgan.<sup>7</sup> [9]

Fors tilining Hindiston, Bengaliya va Pokistondagi o’rnini ta’kidlamaslikning iloji yo’q. Turklarning bir necha bor Hindiston yerlarini egallashlari va bu yerda o’z

<sup>5</sup> Genç, Vural. (2023). The Cultural Impact of the Persian Language in and around Bidlis. Iranian Studies. 57. 1-19. 10.1017/irn.2023.61.

[https://www.researchgate.net/publication/375315114\\_The\\_Cultural\\_Impact\\_of\\_the\\_Persian\\_Language\\_in\\_and\\_around\\_Bidlis](https://www.researchgate.net/publication/375315114_The_Cultural_Impact_of_the_Persian_Language_in_and_around_Bidlis)

<sup>6</sup> Devin DeWeese. “A Persian Sufi Work from the Golden Horde: The Qalandar-nāma of Abū Bakr Rūmī,” for Mongols, Tatars and Turks in the Persianate World. <https://brill.com/display/book/edcoll/9789004471177/front-9.xml>

<sup>7</sup> Green, Nile, editor. The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca: Speaking “Bukharan”. 1st ed., University of California Press, 2019. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctvr7fdry>.

davlatlarini tuzishlari bilan fors tili ham mintaqaga kirib kela boshlagan. XIII asr boshida g'uriylar sarkardasi Ixtiyoriddin Muhammad Xiljiyning Bengaliyani egallashi bu yerda fors tilining ta'sirini keskin oshiradi. [10] Ushbu ta'sir Dehli sultonligi davrida (XV asr birinchi chorgigacha) sezilarli darajada oshgan bo'lsada, Boburiylar hokimiyati 1526-yil o'matilgandan so'ng butun Hindistonda o'z ta'sirini yoydi. Boburiy Humoyunning Eron safaviylari bilan yaqinligi Hindistonga ko'plab fors so'fiylari va olimlarini jalg qiladi. XV asrdan XIX asr o'rtalarigacha, ya'ni inglez mustamlakasi davrigacha fors tili Hindistonda davlat ishlarida rasmiy til maqomini saqlab keldi. Ushbu davrda Amir Xusrav Dehlaviy, Abul Fazl Allomiy, Amir Hasan Dehlaviy, Abulfayz ibn Muborak (Fayziy) kabi mashhur shoir, tarixnavislarning fors tilidagi ijodini keltirishning o'zi fors tili maqomining qay darajada bo'lganligini isbotlaydi. Barcha davlat farmonlari fors tilida bitilib, davlat ishiga kirgan hindlar fors tilini o'rganishga majbur bo'lgan. Bu hind tili va fors tili o'rtaida uyg'unlashuvga olib kelib, urdu tilining yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.<sup>8</sup> [11]

Quyida esa hind tilida mavjud bo'lgan fors tilidan o'zlashma so'zlarni misol sifatida keltirishni lozim topdik:

### Fors tilida

آسمان (osmon) - osmon

قلم (qalam) - ruchka

ره (roh) - yo'l

زهار (zahar) - zahar

آواز (ovoz) - ovoz

خط (xat) - xat, chiziq

ایمن (imon) - iymon

### Hind tilida

اسماں (asman)

کلام (kalam)

راہ (rah)

زہر (zahar)

آواز (avaz)

خات (hhat)

یمان (iyman)

## XULOSA

Fors tili bugun dunyoning 36 tadan ziyod davlatida tarqalgan bo'lib, eng asosiy, Eron, Afg'oniston, Tojikiston va Pokistonda aholining akasari fors tilida (yoki dariy tilida) gaplasha oladi yoki tushunadi. Ushbu so'zlashuvchilar soni dunyo bo'y lab 100 million kishidan ortiqdir. Bugun fors tili asrlar davomida o'zining Yaqin va O'rta

<sup>8</sup> Shahid Kodur. Persian influence on Indian Muslim Culture; with special reference to Persian Literature. DARUL HUDA ISLAMIC UNIVERSITY, Kerala, India, 2015.

[https://www.academia.edu/34804356/Persian\\_influence\\_on\\_Indian\\_Muslim\\_Culture\\_with\\_special\\_reference\\_to\\_Persian\\_Literature](https://www.academia.edu/34804356/Persian_influence_on_Indian_Muslim_Culture_with_special_reference_to_Persian_Literature)

Sharq, Markaziy Osiyo va hatto Rossiya, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindiston hududlaridagi davlat ish yuritish tili sifatidagi beqiyos o’rnini tugatgan bo’lsa ham, bu tilda bitilgan qo’lyozmalar, durdona asarlar mamlakatlarning boyligiga aylandi. Adabiyot va san’at, din va ilm uchun xizmat qilgan fors tilidan bugun ham o’quvchilar foydalananishda davom etmoqda.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Khansir Ali A., Mozafari N. The Impact of Persian Language on Indian Languages. Academy Publisher, 2014.  
<https://www.academypublication.com/issues/past/tpls/vol04/11/20.pdf>
2. Moutasim Billah Omed. Origin and changing process of Persian Dari language. International Journal of Advanced Academic Studies, 2021.  
<https://www.allstudyjournal.com/article/542/3-2-8-129.pdf>
3. Green, Nile, editor. The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca: Persian and Turkic from Kazan to Tobolsk. 1st ed., University of California Press, 2019. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctvr7fdry>.
4. Ghanbari H., Rahimian M. Persian Language Dominance and the Loss of Minority Languages in Iran. Open Journal of Social Sciences, 2020.  
<https://www.scirp.org/journal/papercitationdetails?paperid=103964&JournalID=2430>
5. Genç, Vural. (2023). The Cultural Impact of the Persian Language in and around Bidlis. Iranian Studies. 57. 1-19. 10.1017/irn.2023.61.  
[https://www.researchgate.net/publication/375315114\\_The\\_Cultural\\_Impact\\_of\\_the\\_Persian\\_Language\\_in\\_and\\_around\\_Bidlis](https://www.researchgate.net/publication/375315114_The_Cultural_Impact_of_the_Persian_Language_in_and_around_Bidlis)
6. Devin DeWeese. “A Persian Sufi Work from the Golden Horde: The Qalandarnāma of Abū Bakr Rūmī,” for Mongols, Tatars and Turks in the Persianate World.  
<https://brill.com/display/book/edcoll/9789004471177/front-9.xml>
7. Green, Nile, editor. The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca: Speaking “Bukharan”. 1st ed., University of California Press, 2019. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctvr7fdry>.
8. Shahid Kodur. Persian influence on Indian Muslim Culture; with special reference to Persian Literature. DARUL HUDA ISLAMIC UNIVERSITY, Kerala, India, 2015.  
[https://www.academia.edu/34804356/Persian\\_influence\\_on\\_Indian\\_Muslim\\_Culture\\_with\\_special\\_reference\\_to\\_Persian\\_Literature](https://www.academia.edu/34804356/Persian_influence_on_Indian_Muslim_Culture_with_special_reference_to_Persian_Literature)